



GERMANY'S INFORMATION POLICY IN THE EAST DURING THE FIRST WORLD WAR: THE CASE OF THE "NACHRICHTENSTELLE FÜR DEN ORIENT"

Okhun Boltaev

Asia International University

Faculty of Social Sciences and Technics

Lecturer, Department of Social Sciences and Humanities

E-mail: 9690798@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Nachrichtenstelle für den Orient, German Empire, First World War, Eastern policy, Pan-Islamism, propaganda, information warfare, Max von Oppenheim, Ottoman Empire, Turkestan, Emirate of Bukhara, Muslims of the Russian Empire, jihad propaganda, press, information policy.

Received: 05.09.26

Accepted: 06.09.26

Published: 07.09.26

Abstract: This article examines the establishment, organizational structure, principal areas of activity, and the role of the Nachrichtenstelle für den Orient (News Bureau for the East), founded under the German Foreign Office during the First World War, within the framework of Germany's Eastern policy. It analyzes the Bureau's propaganda activities based on Pan-Islamic ideas and its efforts to influence the Ottoman Empire, the Muslims of the Russian Empire, Turkestan, and the Emirate of Bukhara. Particular attention is paid to the methods of information warfare employed by the Bureau, as well as the mechanisms of political influence implemented through multilingual publications, newspapers, journals, and other propaganda materials. The study also evaluates the Bureau's contribution to Germany's strategic objectives in the East and its role in shaping political and ideological influence during the First World War.

BIRINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA GERMANIYANING SHARQDAGI AXBOROT SIYOSATI: "NACHRICHTENSTELLE FÜR DEN ORIENT" FAOLIYATI MISOLIDA

Oxun Boltayev

Osiyo xalqaro universiteti

"Ijtimoiy fanlar va texnika" fakulteti

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Nachrichtenstelle für den Orient, Germaniya imperiyasi, Birinchi jahon urushi, Sharq siyosati, panislomizm, targ'ibot, axborot urushi, Maks fon Oppenheim, Usmonli imperiyasi, Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi, Rossiya musulmonlari, jihod targ'iboti, matbuot, propaganda.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Birinchi jahon urushi yillarida Germaniya imperiyasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida tashkil etilgan "Nachrichtenstelle für den Orient" (Sharq uchun axborot byurosi)"ning tashkil etilishi, tuzilishi, asosiy faoliyat yo'nalishlari va Germaniyaning Sharq siyosatidagi o'rni tahlil qilinadi. Byuroning panislomizm g'oyalariidan foydalanish orqali Usmonli imperiyasi, Rossiya musulmonlari, Turkiston o'lkasi va Buxoro amirligida olib borgan targ'ibot faoliyati, axborot urushi usullari hamda ko'p tilli nashrlar, matbuot va targ'ibot materiallari orqali siyosiy ta'sir ko'rsatish mexanizmlari yoritiladi..

ИНФОРМАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА ГЕРМАНИИ НА ВОСТОКЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ: НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ "NACHRICHTENSTELLE FÜR DEN ORIENT"

Охун Болтаев

Международный университет Азия

Факультет социальных наук и техники

Преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук

E-mail: 9690798@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Nachrichtenstelle für den Orient, Германская империя, Первая мировая война, восточная политика, панисламизм, пропаганда, информационная война, Макс фон Оппенгейм, Османская империя, Туркестанский край, Бухарский эмират, мусульмане Российской империи, пропаганда джихада, печать, информационная политика.

Аннотация: В данной статье анализируются создание, организационная структура, основные направления деятельности и место "Nachrichtenstelle für den Orient" ("Информационное бюро по делам Востока"), учреждённого при Министерстве иностранных дел Германской империи в годы Первой мировой войны, в реализации восточной политики Германии. Рассматривается пропагандистская деятельность бюро, основанная на использовании идей панисламизма, направленная на Османскую империю, мусульман Российской империи, Туркестанский край и Бухарский эмират. Особое внимание уделяется методам информационной войны, а также механизмам политического

Kirish. Germaniya imperiyasi ko‘plab turli mazmundagi publitsistik materiallar yordamida Sharq mamlakatlari va xalqlarining siyosiy kayfiyatiga Markaziy davlatlar (Germaniya, Avstriya-Vengriya va ularning ittifoqchilari) foydasiga ta'sir ko'rsatishga intildi.

Sharq xalqlarida Antanta davlatlarining siyosati islom va Sharq manfaatlariga qarshi yo'naltirilgan degan tasavvurni shakllantirish maqsad qilingan. Masalan, Germaniya targ'ibot materiallarida tatarlarga Rossiyaning ittifoqchilari musulmon mamlakatlarida va Hindistonda zulm o'tkazayotgani, eronliklarga Buyuk Britaniyaning Hindistondagi siyosati, misrliklarga esa Eron xalqining ahvoli shu tarzda tasvirlab berilar edi. Bu tavsiflar targ'ibot maqsadida shakllantirilgan qarashlar bo'lib, ularni voqelikning xolis bayoni sifatida qabul qilib bo'lmaydi.

Adabiyotlar sharhi: Ushbu masalani o'rganishda eng muhim manbalardan biri Johannes Lepsiusning Deutschland und Armenien asaridir. Muallif, ayniqsa, Liman fon Sandersning armanlarga nisbatan ayrim deportatsiyalarni to'xtatishga qilgan urinishlarini ham hujjatlar asosida ko'rsatadi. Turk tarixchisi Yusuf Hikmet Bayurning uch jildlikn asari, Amerikalik tarixchi Richard G. Hovannisian, So'nggi yillarda Germaniyaning panislomizm siyosati yangi metodologik yondashuvlar asosida qayta o'rganilmoqda. Xususan, Remzi Avjining maqolasida Germaniya sharqshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan jihad konsepsiyasi tahlil qilinadi. Nemis tarixchisi Tilman Ludkening tadqiqoti Germaniya targ'ibot siyosatining samaradorligini tanqidiy baholaydi. Erik-Jan Zurcher tahriri ostida chiqarilgan to'plami mazkur mavzudagi eng muhim zamonaviy ilmiy ishlardan biridir. Bundan tashqari, Ulrich Trumpenening asari Germaniya–Usmonli harbiy va siyosiy hamkorligini chuqur tahlil qiladi.

Natija va mulohazalar: Islom olami masalalari bo'yicha mutaxassis sifatida 1914-yil 2-avgustda Germaniya Tashqi ishlar vazirligiga jalb etilgan sobiq imperatorlik vaziri baron Maks fon Oppenheim [4.66] 1914-yil 18-avgustda Germaniya reyxskansleriga o'z ta'rifi bilan aytganda, Britaniyaning Sharqdagi "yolg'on targ'iboti"ga qarshi nemis axborot tashkilotini tuzishni taklif qildi. Bu baho Oppenxaym taklifnomasiga tegishli [5.58]. Unga ko'ra, mazkur tashkilot xabarlarini arab, turk, fors, hindustoni (hindustani), kisuahili va Rossiya musulmonlari tillariga tarjima qilishi lozim edi. Bu ishga Berlin Sharqshunoslik seminari, Gamburg Mustamlakachilik instituti hamda Germaniya universitetlarining sharqshunos olimlarini jalb etish taklif qilindi.

Oppenheim 1914-yil oktabr oyida "Denkschrift betreffend die Revolutionierung der islamischen Gebiete unserer Feinde" nomli hujjatni tayyorladi. Sarlavhaning so'zma-so'z tarjimasi: "Dushman davlatlar tasarrufidagi islom hududlarini inqiloblashtirish to'g'risidagi

memorandum”. “Inqiloblashtirish” (Revolutionierung) atamasi Oppenheim memorandumining o‘z lug‘atiga tegishli bo‘lib, quyida faqat shu hujjatga havola sifatida ishlatiladi.

Tashkilot Germaniya Tashqi ishlar vazirligiga bo‘ysungan bo‘lsa-da, u Bosh shtabning siyosiy bo‘limi bilan ham yaqindan hamkorlik qilgan. NfO rasmiy jihatdan aniq tashkiliy tuzilishga ega bo‘lmagan, biroq uning faoliyatida diplomatlar, sharqshunos olimlar, jurnalistlar va harbiy mutaxassislar ishtirok etgan.

Mazkur tashkiliy va texnik masalalar hal etilgach, Oppenheim “Tarjimalar va Sharq uchun Axborot Byurosi”ni tashkil etdi. Uning o‘rinbosari etib dragoman (sharq tillari tarjimoni) Karl Emil Shabinger fon Shovingen tayinlandi. U xizmat davrida “konsul” unvoniga ega bo‘ldi [2.40]. Oppenxaym 1915-yil bahoridan boshlab Turkiyada faoliyat yuritgan davrda Berlin markaziga aynan Shabinger rahbarlik qildi. 1916-yil 25-fevralda esa mashhur sharqshunos olim professor doktor Eugen Mittwoch [3.50] “Nachrichtenstelle für den Orient” rahbari etib tayinlandi.

“Nachrichtenstelle für den Orient” Germaniya Tashqi ishlar vazirligi tomonidan davlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtirildi. 1916 va 1917-yillarda Tashqi ishlar vazirligining umumiy targ‘ibot jamg‘armasidan ushbu tashkilot faoliyati uchun har yili 300 000 nemis markasi ajratildi [2.40-42].

Tashkilotga Max fon Oppenheim rahbarlik qilgan bo‘lsa, uning faol a‘zolari orasida mashhur sharqshunoslar Martin Hartmann va Eugen Mittwoch ham bo‘lgan. Eugen Mittwoch (Arab bo‘limi direktori), Martin Hartmann (Turk bo‘limi direktori), Willy Spatz, Eronshunos Oskar Mann (Fors bo‘limi direktori), Hindshunos Helmuth von Glasenapp, Eronshunos Sebastian Beck va Herald Cossack [1.25].

Nemis pan-islomiy strategiyasini qo‘llab-quvvatlagan ziyolilar, Usmonli imperiyasi urushga kirishidan oldin, 1914-yil oktabrida Max fon Oppenheim tomonidan yozilgan memorandumdan katta ta’sirlangan. Memorandum 136 bet bo‘lib, unga Denkschrift betreffend die Revolutionierung der islamischen Gebiete unserer Feinde deb nom berilgan; Oppenheim memorandumini sarlavhasining tarjimasini — “Dushmanlarimizning islom hududlarini inqilobiylashtirishga doir memorandum”. Bu yerda ham “inqilobiylashtirish” hujjat muallifining atamasi bo‘lib, tadqiqotchining bahosi emas. Hujjat maqsadi Germaniyaning islom siyosati uchun “yo‘l xaritasini” chizish edi [1.25-35].

1914-yil 8-sentabrda Oppenxaym Sharqda “soxta xabarlar”ga qarshi kurashish uchun tashkil etiladigan “Tarjimalar byurosi” faoliyati xarajatlarini oyiga 5 000–6 000 nemis markasi miqdorida baholadi. 1914-yil 12-sentabrda davlat kotibi o‘rinbosari Zimmermann Prussiya Madaniyat vaziriga yo‘llagan maktubida Oppenxaymga axborot tarqatish bilan shug‘ullanuvchi “Sharq tillari tarjimalar byurosi”ni tashkil etish vakolati berilganini ma’lum qildi[2.37]. Oradan

ko'p o'tmay, 1914-yil 23-sentabrda Germaniya Tashqi ishlar vazirligi Imperiya pochta idorasi davlat kotibiga murojaat qilib, Oppenxaym foydalanishi uchun Imperiya bosmaxonasini (Reichsdruckerei) ajratishni so'ragan [5.78].

Tarjima qilingan materiallarni xorijdagi Germaniya diplomatik vakolatxonalari, nemis banklari, savdogarlari hamda Bag'dod temir yo'li qurilishi bilan shug'ullanuvchi kompaniya orqali tarqatish rejalashtirilgan edi. Bundan tashqari, islom olamidagi diniy tariqatlar, musulmon yirik savdogarlar, Avstriya-Levant savdo uylari (Konstantinopol, Halab, Bayrut va boshqa shaharlardagi filiallari bilan), xristian missionerlik tashkilotlari, Germaniya maktablari, yahudiy koloniyalari, shuningdek nemis gazetalarining muxbirlari ham Germaniya targ'ibot faoliyatini qo'llab-quvvatlashi ko'zda tutilgan edi. Oppenxaymning fikricha, Turkiya hukumatining hamkorligini qo'lga kiritish nihoyatda muhim bo'lib, Konstantinopolda Misr, Hindiston va Rossiyaning musulmon hududlaridan kelgan muhojirlar matbuotidan ham foydalanish zarur edi. Shuningdek, targ'ibot faoliyati Sharqiy Osiyo va Germaniya mustamlakalarini ham qamrab olishi lozim edi.

“Nachrichtenstelle für den Orient” tarkibiga devonxona (kanselyariya) hamda bosma materiallarni tayyorlash va tarqatish bo'yicha markaziy bo'limdan tashqari, dastlab matbuot bo'limi, shuningdek turk, arab, hind va rus bo'limlari kirgan. Keyinchalik ularga turk huquqiy bo'limi, fors bo'limi, Adabiy byuro, harbiy asirlar uchun nashr etilgan gazetalar tahririyati hamda “Korrespondenzblatt” tahririyati (uning rahbari ayni paytda Sharqiy Osiyo masalalari bilan ham shug'ullangan; qarang: quyida, 107–108-betlar) qo'shilgan [5.79].

1914-yil 10-oktabrdan 1918-yil iyul oyining oxirigacha bo'lgan davrda "Nachrichtenstelle für den Orient" tomonidan 9 ta Yevropa va 15 ta Sharq tillarida jami 1012 nomdagi nashr (kitoblar, risolalar, varaqalar, jurnallar, gazetalar, tasviriy plakatlar va filmlar) chop etilib, 3 milliondan ortiq nusxada tarqatilgan.

1915-yil aprel oyida esa “Imperatorlik Germaniya elchixonasining axborot idorasi” (Nachrichtenstelle der Kaiserlich Deutschen Botschaft) Istanbulda tashkil etiladi.

Ushbu idora Hindiston, Afg'oniston, Shimoliy Afrika va Markaziy Osiyoga tarqatish uchun risola, varaqa va murojaatlar nashr qilgan. Bundan tashqari:

1915–1918-yillar oralig'ida arab, tatar, rus tillarida musulmon harbiy asirlar uchun “al-Jihad” gazetasi chop etilgan: Idora tarkibida arab, fors, turk, hind, xitoy va rus bo'limlari bo'lgan. Har bir bo'limda nemis rahbarligida mahalliy va nemis xodimlar ishlagan. Ular orasida akademiklar, diplomatlar, tadbirkorlar va missionerlar bo'lgan.

Turk bo'limi xodimlari: Halil Halid Bey – Bombaydagi sobiq Usmonli bosh konsuli; Selaheddin – Usmonli flot qo'mondoni; Dr. Saadi – jurnalist[6.85].

Baron Maks fon Oppenxaym 1916-yil 31-dekabrda Germaniya reyxskansleriga taqdim etgan taklifida Sharqdagi iqtisodiy targ'ibot ishlarini, Konstantinopoldagi Nachrichtenstelleni hamda axborot zallarini "Deutscher Uberseedienst GmbH" ("Germaniya Chet el xizmati") tasarrufiga o'tkazishni tavsiya qildi. Mazkur tashkilotga sobiq tuman boshlig'i (Landrat a. D.) Rotger rahbarlik qilgan.

Oppenxaymning fikricha, yangi tashkilot siyosiy va harbiy targ'ibot xarajatlarini ham o'z zimmasiga olsa, bu Germaniya davlat byudjetiga tushayotgan moliyaviy yukni kamaytirardi.

Davlat kotibi Richard fon Kyulman (Kühlmann) Oppenxaymning mazkur taklifini qo'llab-quvvatladi. Biroq u Nachrichtenstellening matbuot xizmati Germaniyaning Konstantinopoldagi elchixonasi tarkibida qolishi kerakligini ta'kidladi.

1917-yil 1-aprelda Nachrichtenstelle Germaniya elchixonasidan rasman ajratildi. Bundan biroz oldin, ya'ni 1917-yil 19-martda, doktor Kurt Prufer Konstantinopoldagi Nachrichtenstelle va axborot zallarining vaqtinchalik rahbari etib tayinlangan edi

Gussonening baholashiga ko'ra, targ'ibotning eng ta'sirchan shakllaridan biri lagerda Germaniya tomonidan qurilgan maxsus masjid bo'lgan; u ham musulmon asirlarni jalb etish vositasi sifatida ishlatilgan. Xuddi shu tadqiqotchining talqiniga ko'ra, Germaniya propagandasi doirasida ilgari surilgan "global jihodiy niyatlar"ga mos ravishda, bu masjid turli islomiy sivilizatsiyalardan olingan uslubiy elementlar bilan ataylab bezatilgan edi.

Masjid devorlariga yozilgan xattotlik yozuvlari orasida, Qur'onning 47-surasi, 8-oyati kabi matnlar ham bor bo'lib, Gussonening talqiniga ko'ra, nemis targ'iboti kontekstida bu yozuvlar asirlar tomonidan jihodga da'vat sifatida tushunilishi ko'zda tutilgan. Mazkur baho tadqiqotchiga tegishli bo'lib, oyatlarning diniy-ilohiyotshunoslik talqini bilan bog'liq emas [8.22].

Tarixshunoslikda qabul qilingan bahoga ko'ra, urush davrida Berlinda tashkil etilgan "Nachrichtenstelle fur den Orient" (Sharq bo'yicha axborot idorasi) Germaniyaning islom siyosati ishlab chiqilgan asosiy markaz hisoblanadi [8.15-36]. Ayniqsa, Max Freiherr von Oppenheim va Karl-Emil Schabinger Freiherr von Schowingen bu borada yetakchi rollarni o'ynaganlar. Birinchisi - Oppenheim - o'ziga yaqin maslahatchi sifatida tunislik muftiy Shayx Solih ash-Sharif at-Tunisiyni Berlinda qabul qilgan. Ikkinchisi - Schabinger - esa Shayxning "Haqiqat al-jihod" risolasini nemis tiliga tarjima qilgan. Bu matnga Martin Hartmann tomonidan yozilgan kirish qismida, Germaniya targ'iboti doirasida, bosqinchilarga qarshi jihod har bir musulmon uchun shaxsiy farz (fard al-ayn) sifatida talqin qilingan. Mazkur talqin 1914—1915-yillardagi targ'ibot hujjatiga tegishli bo'lib, islom huquqining umumiy qoidasi sifatida keltirilmaydi. Snouck Hurgronje asosan o'z tanqidini aynan von Oppenheim va Schabingerga qaratishi lozim edi, biroq u bu odamlarni ehtimol ilmiy e'tiboriga loyiq deb hisoblamagan bo'lishi mumkin. Garchi bu jihod

chaqirig'i Germaniya va Usmonli imperiyasi kutganidek samara bermagan bo'lsa-da, mustamlakachi davlatlar musulmon fuqarolaridan sadoqatni ochiq tasdiqlashni lozim topdilar. Londonning "The Times" gazetasi 1914-yil 12-noyabrda Hindistondagi musulmonlar bayonotlarini e'lon qildi. Bunga qadar, Aga Xan 4-noyabrda o'z sadoqatini bildirgan edi. Ruslar esa Kavkaz muftiyidan Usmonlilar jihod chaqirig'iga qarshi fatvo olishdi[8.46].

1915-yil bahorida baron Maks fon Oppenheim Usmonli imperiyasi hududida Berlin shahridagi "Nachrichtenstelle für den Orient" bilan uzviy bog'liq bo'lgan maxsus depesha (axborot) zallari tizimini tashkil etdi. Konstantinopoldagi ushbu markaz Oppenxaym tomonidan dastlab "Kaiserlich Deutsche Botschaft Nachrichtenstelle Oppenheim" ("Imperator Germaniya elchixonasining Oppenxaym axborot byurosi"), keyinchalik esa "Kaiserlich Deutsche Botschaft Nachrichtenstelle Konstantinopel" ("Imperator Germaniya elchixonasining Konstantinopol axborot byurosi") deb nomlangan.

1916-yil kuziga kelib Oppenxaym 25 ta asosiy va 50 ta yordamchi axborot markazi (dipesha va tasvirlar zallari)ni tashkil etdi. Ularning boshqaruvi Germaniya konsullari, nemis savdogarlari hamda turk nufuzli arboblari qo'lida bo'lgan.

Mazkur axborot markazlari siyosiy, harbiy va iqtisodiy mazmundagi turli targ'ibot materiallari bilan muntazam ta'minlab borilgan. Ular orasida kundalik telegrammalar, urush xabarlar, gazetalar, jurnallar, suratlar, xaritalar, varaqalar, fotosuratlar, risolalar va filmlar mavjud bo'lib, bularning barchasi mahalliy tillarda hamda nemis tilida tayyorlangan.

1915-yil 15-apreldagi "Kanselyariya va ish yuritish nizomi"ga ko'ra, "Nachrichtenstelle für den Orient" davlat idorasi ham emas, xususiy korxona ham emas, balki davlat idoralari (Tashqi ishlar vazirligi va Bosh shtab) bilan maxfiy aloqalari hamda Germaniya imperiyasidagi favqulodda vaziyatlar tufayli yarim rasmiy maqomga ega bo'lgan tashkilot sifatida ta'riflangan.

Ushbu tashkilotning faoliyat doirasi nihoyatda keng bo'lgan. 1918-yil avgust oyida tuzilgan yakuniy hisobotda uning quyidagi asosiy vazifalari sanab o'tilgan: Sharq mamlakatlari, betaraf davlatlar va Germaniya imperiyasi hududida targ'ibot ishlarini amalga oshirish. Bevosita islomiy targ'ibot masalalarida esa Germaniya nisbatan ehtiyotkor siyosat yuritgan. Xususan, xalifalik masalasi kabi diniy jihatdan nozik mavzularda, asosan, musulmon sharq mualliflarining fikr va bayonotlari e'lon qilingan.

Harbiy xabarlar arab, fors, urdu, hindi, xitoy, turk-tatar, rus va gruzin tillarida nashr etilgan. Urush boshlanganidan buyon yuz bergan eng muhim voqealarni yorituvchi maxsus "Urush xronikasi" arab (adabiy arab tili), mag'rib lahjalari (Shimoliy-G'arbiy Afrika lahjalari), siam (tay), rus, urdu, hindi, xitoy, turk va tatar tillarida tayyorlangan [7.204].

1915-yilda Berlinda Hasan Taqizodaning “Persien und der europäische Krieg” (“Eron va Yevropa urushi”) asari nashr qilindi. Mazkur asarning inglizcha “Persia and the European War” nomli nashri 1917-yilda Amsterdamda, fransuzcha “La Perse et la guerre européenne” nomli nashri esa Lozannada chop etildi [5.11].

1915-yil 18-sentabrda “Nachrichtenstelle” xodimi Harald Cosack legatsiya kotibi fon Wesendonkka yo‘llagan taklifida shayx Abdulrashid Ibrohimni Berlin universitetiga tatar tili lektori sifatida ishga olish, shuningdek tatar tilidagi gazeta va arab tilidagi haftalik nashrni yo‘lga qo‘yishni tavsiya etdi.

Kosakning fikricha, “Islom olamining yetakchi doiralarini o‘z tomoniga og‘dirish keng xalq ommasi bilan ishlashdan ancha muhimdir. Agar Germaniya yetakchi qatlamlarni o‘z tarafiga og‘dira olsa, omma tabiiy ravishda ularning ortidan ergashadi”. Biroq fon Vesendonk o‘sha paytda “bu masalani amaliy jihatdan ko‘rib chiqish uchun hali vaqt yetib kelmagan” deb hisoblagan.

Nemis gazetalariga xalifalik va jihad masalalari (jumladan "Kölnische Zeitung" gazetasi uchun), shuningdek Turkiya haqidagi umumiy materiallar muntazam yetkazib berilgan. Turkiyaga bag‘ishlangan maxsus sonlar "Berliner Tageblatt", "Hamburger Nachrichten", "Deutsche Levante-Zeitung" va "Leipziger Illustrierte Zeitung" gazetalarida chop etilgan. Bundan tashqari, Deutsche Lichtbildgesellschaft tomonidan suratga olingan kinofilmlar uchun ham sharq tillarida izohli matnlar tayyorlangan.

Jurnalning umumiy adadi 5000 nusxani tashkil etgan bo‘lib, shundan 1500 nusxasi betaraf davlatlarga yuborilgan. Nashr Marokashdan tortib Yaponiyagacha bo‘lgan barcha Sharq mamlakatlarini qamrab olishni maqsad qilgan edi.

1916-yilda “Rossiyaning vahshiyliklari” (Russische Greuelthaten) nomli targ‘ibot risolasi turk, tatar va arab tillarida nashr etildi. Germaniyaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini targ‘ib qilish maqsadida tayyorlangan “Deutschlands Wirtschaftsleben vor und im Krieg” (“Urushdan oldin va urush davrida Germaniya iqtisodiyoti”) nomli risola esa turk, xitoy, tatar va arab tillarida chop etildi.

“Nachrichtenstelle für den Orient” turk matbuoti va jurnallariga ham ta'sir o‘tkazishga intilgan. Shu maqsadda u panislomistik yo‘nalishdagi haftalik “Sebil-ur-Reshad”, Konstantinopolda fors, turk, arab va urdu tillarida nashr etilgan “Djihan-i-Islam”, shuningdek “Ed Adl”, “Iqdam” va boshqa gazetalarda o‘z maqolalarini muntazam ravishda chop ettirib borgan. Hatto “Sabah” hamda “Sebil-ur-Reshad” gazetalarini sotib olish rejasi ham ishlab chiqilgan edi.

“Nachrichtenstelle für den Orient” uchun asosan Bombeydagi sobiq Usmonli imperiyasi bosh konsuli Halil Halid Bey, shuningdek Salih va Saadi Bey maqolalar yozgan. Germaniyadagi

harbiy lagerlarda saqlanayotgan musulmon harbiy asirlar esa “El Adl” va “Djihan-i-Islam” gazetalarini muntazam olib turganlar [5.18].

1916-yilda Maks fon Oppenxaym Damashqda arab tilidagi “l Scherk” (yoki Esch Scherk, Asch Scherk) gazetasiga asos soldi. Xuddi shu yili Bag‘dodda arab tilidagi “Sedai ul Islam” (Sada’y-i Islam) gazetasi ham tashkil etildi. Shuningdek, “Nachrichtenstelle für den Orient” ko‘magida 1916-yildan boshlab Berlinda fors tilidagi “Kaweh” (Kava) gazetasi nashr etila boshlandi [5.53].

1915-yil mart oyidan 1916-yil mart oyigacha bo‘lgan davrda Oppenxaymning Usmonli imperiyasidagi missiyasi uchun 500 000 nemis markasi ajratilgan. 1916-yil 1-apreldan 1917-yil 31-martgacha esa jami 300 000 marka mablag‘ ajratilib, shundan 200 000 marka axborot zallari (Nachrichtensale), 100 000 marka esa Konstantinopoldagi Nachrichtenstelle faoliyatini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan.

Xulosa. Germaniyaning Sharqdagi targ‘ibot siyosati qanday natija berganini aniq raqamlar bilan baholashning imkoni yo‘q. Masalan, nemis targ‘iboti tufayli Antanta davlatlari qancha harbiy kuchni Sharq frontlarida ushlab turishga majbur bo‘lgani yoki Shimoliy Afrika va Hindistonda qancha kishi harbiy xizmatga chaqirilishga qarshilik ko‘rsatgani kabi ko‘rsatkichlarni manbalar asosida aniqlab bo‘lmaydi.

Maks fon Oppenxaym 1916-yil avgust oyida “Nachrichtenstelle für den Orient” tomonidan tayyorlangan risolalar, ayniqsa “Urush xronikasi” hamda iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan risolaning Usmonli imperiyasidagi ta‘sirini ijobiy baholagan. Uning fikricha, ushbu nashrlar nafaqat turklar, balki Usmonli imperiyasidagi mag‘riblik musulmonlar, tatarlar va gruzinlar orasida ham yaxshi samara bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avcı R. Pan-Islamism and the Jihad Discourse of the German Orientalists in the First World War // Al-Tamaddun. – 2019. – Vol. 14. – No. 2. – P. 25–35. DOI: 10.22452/JAT.vol14no2.3.
2. Bayur Y. H. Türk İnkılâbı Tarihi. Cilt III. Kısım 3. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1958. – 639 s.
3. Hovannisian R. G. Armenia on the Road to Independence, 1918. – Berkeley; Los Angeles: University of California Press, 1967. – 364 p.
4. Kumuk C. Deutschland und der Kaukasus. Die deutsche Kaukasuspolitik 1914–1918. – Wien: Verlag für Geschichte und Politik, 1992. – 488 S.
5. Lepsius J. Deutschland und Armenien 1914–1918. Sammlung diplomatischer Aktenstücke. – Potsdam: Tempel-Verlag, 1919. – 541 S.

6. Lüdke T. (Not) Using Political Islam: The German Empire and Its Failed Propaganda Campaign in the Near and Middle East, 1914–1918 and Beyond // Jihad and Islam in World War I: Studies on the Ottoman Jihad on the Centenary of Snouck Hurgronje's "Holy War Made in Germany". Ed. by Erik-Jan Zürcher. – Leiden: Leiden University Press, 2016. – P. 83–110. – 358 p.
7. Trumpener U. Germany and the Ottoman Empire, 1914–1918. – Princeton: Princeton University Press, 1968. – 288 p.
8. Zürcher E.-J. The Ottoman Jihad, the German Jihad and the Sacralization of War // Jihad and Islam in World War I: Studies on the Ottoman Jihad on the Centenary of Snouck Hurgronje's "Holy War Made in Germany". Ed. by Erik-Jan Zürcher. – Leiden: Leiden University Press, 2016. – P. 15–36. – 358 p.
9. Haus-, Hof- und Staatsarchiv (HHStA), Wien. Politisches Archiv (PA) XII, Karton 209. Pallavicini 66/P B an Burian. 13 August 1915.
10. Kreß F. Frhr. von. Mit den Türken zum Suezkanal. – Berlin, 1938. – 312 S.
11. Nogales R. de. Vier Jahre unter dem Halbmond. – Berlin, 1926. – 384 S.